

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI  
HUZURIDAGI IJTIMOYIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR  
INSTITUTIDA ILMIY DARAJALARINI BERUVCHI  
DSc.03/08.05.2024.F.135/01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**IJTIMOYIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**IBRAGIMOVA NODIRA SHUHRATJONOVNA**

**URUSH MAVZUSIDAGI ROMANLARDA SHAXS MA'NAVIYATI  
SHAKLLANISHI JARAYONINING FALSAFIY TALQINI  
(Nobel mukofoti sovrindorlari ijodi misolida)**

**09.00.07 – Ma'naviyat tarixi va nazariyasi**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по  
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in  
philosophical sciences**

**Ibragimova Nodira Shuhratjonovna**

Urush mavzusidagi romanlarda shaxs ma'naviyati shakllanishi jarayonining falsafiy talqini (Nobel mukofoti sovrindorlari ijodi misolida).....3

**Ибрагимова Нодира Шухратжановна**

Философская интерпретация процесса формирования духовности личности в романах на тему войны (На примере произведений лауреатов Нобелевской премии).....27

**Ibragimova Nodira Shukhratjonovna**

The philosophical interpretation of the process of spiritual formation of the individual in war-themed novels (Based on the works of Nobel Prize laureates) 55

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....59

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI  
HUZURIDAGI IJTIMOYIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR  
INSTITUTIDA ILMIY DARAJALARINI BERUVCHI  
DSc.03/08.05.2024.F.135/01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**IJTIMOYIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**IBRAGIMOVA NODIRA SHUHRATJONOVNA**

**URUSH MAVZUSIDAGI ROMANLARDA SHAXS MA'NAVIYATI  
SHAKLLANISHI JARAYONINING FALSAFIY TALQINI  
(Nobel mukofoti sovrindorlari ijodi misolida)**

**09.00.07 – Ma'naviyat tarixi va nazariyasi**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.1.PhD/Fal1262 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiya Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti veb-sahifasida (oyina.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Davlatov Olimjon Davlatovich,**  
Falsafa doktori (PhD), professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Ernazarov Fayzulla Narzullayevich,**  
tarix fanlari doktori, professor.

**Omonov Baxtiyor Axtamovich,**  
siyosiy fanlar doktori, professor.

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutida ilmiy darajalarini beruvchi DSc.03/08.05.2024.F.135/01 - raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 21-noyabr soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani Bobur ko'chasi, 9-uy, 3-qavat, 307-xona (anjumanlar zali) Tel.: (998) 55-503-41-90);

Dissertatsiya bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (42-raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani Bobur ko'chasi, 9-uy, 3-qavat, 310-xona (anjumanlar zali) Tel.: (998) 55-503-41-90).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 12-noyabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil 12-noyabrdagi №30-raqamli reyestr bayonnomasi).



**A.A. Mavrulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, tarix  
fanlari doktori, professor

**I.A. Suvonov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, falsafa  
fanlari doktori (DSc), katta ilmiy  
xodim

**O.R. Musayev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, falsafa fanlari  
doktori, professor

## **KIRISH (Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon falsafiy tafakkuri hamda badiiy adabiyotining nodir namunalari sifatida e'tirof etilgan urush mavzusidagi romanlarda inson ruhiyati, qadriyatlari va dunyoqarashi g'ayritabiiy sharoitlarda, ya'ni urush kabi inqirozli vaziyatlarda qanday o'zgarishini chuqur yoritib berilgani bilan katta ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega. Bunday asarlarda urush – bu shunchaki harbiy to'qnashuv emas, balki inson ongi va qalbi uchun katta sinov ekani, qahramonlarning boshidan kechirgan azob-uqubatlari, yo'qotishlari va o'limga yuzma-yuz kelishlari orqali ularning xarakteri, ma'naviy olamini qanday shakllanishi jarayoni chuqur badiiy-falsafiy tahlil va tasvirlar vositasida ko'rsatiladi. Asar qahramonlarining har bir qarori, har bir harakati ma'naviyatning falsafiy muammolari – ma'naviy tanlov, adolat, insoniylik, kechirimlilik va nafrat kabi mavzular bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'quvchini chuqur mushohadaga undaydi. Bu bilan insonlarda ezgulik va yovuzlik, tinchlik va urush, hayot va o'lim to'g'risida umuminsoniy qarashlarini shakllantirishda dolzarb ahamiyat kasb etishi namoyon bo'ladi.

Dunyo faylasuflarining urush haqidagi tadqiqotlariga ko'ra, urush sharoitida odamlar o'zining eng yaxshi va eng yomon jihatlarini namoyon etadi. Urush romanlarida esa, odam qanday qilib insoniylikdan ayrilib, shafqatsiz jonzotga aylanishi yoki aksincha, jamiyatdagi adolatsizlik va vahshiylikka qarshi kurashib, o'z ma'naviy qadriyatlarini himoya qilishga harakat qilishini ko'rsatadi. Ayniqsa, Nobel mukofoti sovrindorlari bo'lgan adiblarning romanlarida shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy talablarning ziddiyatlari, jamiyatning ma'naviy parchalangan inqirozli davrlarida individning vijdon azobi, ijtimoiy burch va haqiqat o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy kurashlar falsafasi har tomonlama yoritilgan. Ular o'lim va yo'qotishlarning falsafiy ma'nosini chuqur tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, bugungi kunda kelajak avlodlarga urushning ma'naviy va ruhiy oqibatlarini anglatish, jamiyatda vujudga kelishi mumkin bo'lgan beqarorliklarni oldini olish, millat va elatlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash orqali tinchlik qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladigan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ijtimoiy fanlar sohasida inson shaxsiyati, ma'naviy olam va ijtimoiy ruhiyat masalalariga bo'lgan ilmiy qiziqish izchil tarzda oshib bormoqda. Bu haqda Prezident qayd etganidek: “Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, shaxs ma'naviyatining urush kabi og'ir ijtimoiy sinovlar sharoitida shakllanish mexanizmlarini anglash inson ruhiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu nafaqat adabiy tahlil sohasi uchun, balki ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar uchun ham nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, “Yangi O'zbekiston-2030” strategiyasida “Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar” ustuvor

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. “O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik nutqi. URL: <https://www.xabar.uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>

yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda, shaxs ma‘naviyatining urush kabi og‘ir ijtimoiy sinovlar sharoitida shakllanish mexanizmlarini anglash, inson ruhiyatini chuqurroq o‘rganish, uni tadqiq etish, ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan taklif, tavsiya va ilmiy xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi “Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 340-son qarori, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat Kengashining 2023-yil 22-dekabrdagi 50-son Bayoni hamda qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishida muayyan darajada xizmat qiladi. Urush mavzusidagi romanlarda shaxs ma‘naviyatining shakllanishini tahlil qilish bu – faqat adabiy tadqiqot emas, balki inson ruhiyatining chuqur qadriyatlari va inqirozli davrlardagi taqdirini o‘rganishdir. Ushbu mavzu, insoniyat o‘z tarixidan ma‘naviy saboq olishga doimiy ehtiyoj sezayotgan bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida<sup>2</sup>, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”<sup>3</sup> Farmoni, sohaga tegishli bo‘lgan qarorlari hamda asarlarida ilgari surilgan ma‘naviyatni yuksaltirish, yangi O‘zbekistonning fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida inson omilini ustuvor qadriyat sifatida ko‘rish tamoyillari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Urush mavzusi tarixan ko‘plab faylasuflar uchun qiziqish va bahslar manbai bo‘lib kelgan. Ular urushni axloqiy, siyosiy, metafizik va inson tabiati nuqtai nazaridan o‘rganganlar. Yunon faylasufi Fukididning “Peloponnes urushi tarixi”<sup>4</sup> kitobi Afina va Sparta o‘rtasidagi urush haqidagi tarixiy asardir. Fukidid urushni inson tabiati, manfaat va qudrat orqali tushuntirishga harakat qiladi. Xitoy faylasufi va harbiy qo‘mondon Sun Szi “Urush san’ati”<sup>5</sup> kitobida urushda strategiya, psixologik ustunlik va manevrlar haqida ta‘limot bergan. Unda harbiy harakatlarni

<sup>2</sup> Karimov I. Asarlar to‘plami. Toshkent. 1-24. – Toshkent: O‘zbekiston. 1996-2015.

<sup>3</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

<sup>4</sup> Thucydides. The history of the Peloponnesian war. New York: e.p.dutton and company, inc. London: j. m. dent and sons, limited 1950.

<sup>5</sup> Song Ji. Urush san'ati. Toshkent: Asaxiybooks, 2025.

olib borish bo'yicha asosiy tavsiyalar keltirilgan. Ammo "Urush san'ati"ning dolzarbligi harbiy soha bilan cheklanmaydi. Kitobning asosiy g'oyalaridan biri shundan iboratki, g'alaba qilish uchun doim ham jang qilish shart emas. To'g'ri strategiya va reja har qanday raqobatda ustunlikni ta'minlovchi kuchli qurol hisoblanadi. Nemis harbiy faylasufi Karl fon Klauzevis "Urush haqida" kitobida urushni siyosatning boshqa vositalar orqali davomi deb ta'riflaydi. Bu asar harbiy nazariyada asosiy manba hisoblanadi. Faylasuf Immanuel Kant o'zining "Abadiy tinchlik sari" asarida urushni inson tabiatiga zid holat sifatida tanqid qiladi. Kant xalqlar o'rtasida demokratik tuzum va xalqaro tashkilotlar tinchlikka olib keladi deb hisoblaydi. Yozuvchi Jan-Jak Russo "Urush haqida" essesinde urush inson tabiati emas, balki ijtimoiy munosabatlar natijasidir, deb ta'kidlaydi. Amerikalik faylasuf Tomas Gobbs "Leviafan"<sup>6</sup> asarida urushga inson tabiatining ajralmas qismi deb qaraydi. Shuning uchun kuchli davlatlar zarur, deb hisoblaydi. Amerikalik faylasuf, axloqshunos va Prinstondagi Ilg'or tadqiqotlar instituti professori Maykl Uolzer (1935) tomonidan yozilgan "Adolatli va adolatsiz urushlar: tarixiy misollar bilan ma'naviy bahs"<sup>7</sup> kitobi 1977-yilda nashr etilgan. Uolzer urushning ma'naviy jihatiga murojaat qilish nafaqat nazariyotchilar, balki siyosatchilar uchun ham zarurligini ta'kidlaydi. Urush agar qonuniy hokimiyat tomonidan e'lon qilingan adolatli sabab (o'zini himoya qilish yoki insonparvarlik aralashuvi) tufayli yuzaga kelgan bo'lsa va qo'shnlarga hujum qilish buyrug'i berilgunga qadar, davlat barcha noharbiy kurash vositalarini sinab ko'rgan bo'lsa, ma'naviy jihatdan maqbul hisoblanadi: muzokaralar, ultimatumlar, sanksiyalar, deyiladi kitobda.

Ernest Xemingueyning "Alvido, qurol!" romani jahon adabiyotidagi muhim asarlardan biri bo'lgani sababli, bu asar haqida ko'plab ilmiy ishlar, dissertatsiyalar yozilgan. Hemingueyning ijodi va asarlari turli mutaxassislik sohalarida, ayniqsa adabiyotshunoslik yo'nalishida o'rganilgan. Xususan, eron tadqiqotchisi Mahzan Soqandi "Xemingueyning "Alvido, qurol!" asarida yo'qolgan umid: ekzistensializm tadqiqoti"<sup>8</sup> nomli dissertatsiyasida Heminguey romanidagi personajlarning ekzistensialistik qarashlari va ularning urushga, hayotga bo'lgan munosabatini tahlil qilgan. Hind professori doktor Arun Kumar Singhning "Ernest Xemingueyning "Alvido, qurol!" asarida urush va muhabbat mavzusi"<sup>9</sup> tadqiqotida romanning asosiy mavzulari, ya'ni muhabbat va urush mavzularidagi qadriyatlar va insonlar o'rtasidagi munosabatlar chuqur tahlil qilingan. Iroq universiteti tadqiqotchisi Muhammad Dera Farhad "Ernest Xemingueyning "Alvido, qurol!": urush va uning salbiy ta'siri ustidan kinoyaviy nuqtai nazardan tanqidiy tadqiq"<sup>10</sup> nomli tadqiqotida romandagi simvolizm va ironiya kabi badiiy vositalarning qanday ishlatilganligi va ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqligi muhokama qilgan. Rus adabiyotshunoslaridan B.T. Gribanov, Sergo Mikoyan, Aleksey Korolev, Agamaliyeva Susanbar, Aleksandra Yevgenevna mavzuning turli jihatlarini tadqiq qilishgan. Yurtimizda esa Nazar

---

<sup>6</sup> Гоббс Т. Левиафан. Москва: Neoclassic. 2023, С.45.

<sup>7</sup> Walzer M. Just and Unjust Wars: A Moral Argument with Historical Illustrations. New York: Basic Books, 2015

<sup>8</sup> Soqandi M. Lost Hope in Hemingway's A Farewell to Arms: Existentialism Study - Vol 2 No 2 (2020): Britain International of Linguistics, Arts and Education – July.

<sup>9</sup> Kumar Singh A. The Theme of War and Love in Ernest Hemingway's A Farewell to Arms - International Journal for Multidisciplinary Research - Volume 6, Issue 1, January-February 2024.

<sup>10</sup> Dera Farhan M. Ernest Hemingway's A Farewell to Arms: A Critical Study of war and its negative impact from an Ironic Perspective - International Journal of English Literature and Social Sciences (IJELS) Vol-2, Issue-4, July – Aug, 2017.

Eshonqul<sup>11</sup>, Akmal Saidov, Nurbek Alimov<sup>12</sup>, Ma'suma Ahmedova<sup>13</sup>, Qandilat Yusupova<sup>14</sup>, Mirpo'lat Mirzo, Abduhamid Pardayev Xeminguey ijodini umumiy jihatdan o'rganishgan. Lekin urushning inson ma'naviy shakllanishiga ta'siri boshqa tadqiqotlarda kompleks ravishda o'rganilmagan.

Svetlana Aleksiyevichning "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" hujjatli romani haqida ham bir necha tadqiqot va tahlillar mavjud. Bir nechta dissertatsiya va ilmiy ishlar uning asarlarini turli jihatlardan o'rganadi. Asarning asosiy mavzusi bo'lgan ayollar va urush konsepti, ayniqsa, yosh qizlar urush paytidagi qiyinchiliklarni qanday yengib o'tganlari haqida tadqiqotlar mavjud. Bu tadqiqotlar ayollarning urushdagi tajribalarini inson dunyoqarashi va madaniyatining yangi qirralaridan ko'rib chiqadi. Bir qancha tadqiqotchilar asarning adabiy janri va strukturasi o'rganib, uni hujjatli va badiiyat o'rtasidagi o'ziga xos usul deb baholagan. Xususan, tadqiqotchi Anna Karpusheva "Urushni kechirish: Svetlana Aleksievich nasrida tarix va adabiyot o'rtasidagi chegaralar" dissertatsiyasida Svetlana Aleksiyevichning Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan "Utopiya ovozlari"<sup>15</sup> turkumiga kiruvchi uchta kitobini tahlil qilgan va Aleksiyevich og'zaki tarixni qanday qilib adabiyotga aylantirganini ko'rsatgan. Tadqiqotchi Biljana Konatar "Jins va targ'ibot chorhasida (Svetlana Aleksievich misolida)"<sup>16</sup> nomli magistrlik ishida sobiq Ittifoq ayollari Ikkinchi jahon urushi davrida ham frontda, ham mamlakat ichkarisida muhim rol o'ynaganini ochib bergan hamda ularning rolini siyosiy diskursda gender orqali o'rgangan. Kanadalik tadqiqotchi Xoli Mayers "Svetlana Aleksievichning Sink bolalar asarida Sovet-Afg'on urushi haqidagi o'zgarib borayotgan hikoyasi"<sup>17</sup> nomli ilmiy maqolasida "Sink bolalari" asarida sobiq Sovet va Afg'oniston urushi haqidagi afsona qanday shakllanib borganini o'rganadi. Bu tadqiqotchilarning ishlari asosida Aleksiyevich asarlari adabiy tahlil va tarixiy aspektlardan keng yoritilgan. Biroq, asarlarda shaxs ma'naviy qiyofasini shakllanish jarayoni to'liq o'rganib chiqilmagan. Shu sababdan, mazkur dissertatsiya ma'naviyatshunoslik sohasida ahamiyatlidir.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutida ALM-202403110247-sonli "Yoshlarni turli mafkuraviy hurujlardan himoya qilish va ma'naviy-ma'rifiy adabiyot va media mahsulotlar majmuasini yaratish" mavzusidagi maqsadli-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** urush mavzusidagi romanlarda shaxs ma'naviyati shakllanishi jarayonining badiiy-falsafiy talqinini yaratishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

---

<sup>11</sup> Eshonqul N. Ernest Xeminguey – URL: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/ernest-xeminguey/>

<sup>12</sup> Alimov N. «Nihoyat u dengizda hech qachon yolg'iz qolmasligini tushundi...» - URL: <https://daryo.uz/k/2019/09/09/nihoyat-u-dengizda-hech-qachon-yolgiz-qolmasligini-tushundi-chol-va-dengiz-romani-haqida>

<sup>13</sup> Ahmedova M. Xemingueyning so'nggi yozi – "Hurriyat" gazetasi, 2008.

<sup>14</sup> Yusupova Q. Xeminguey hikoyalari metaforik talqin - Miasto Przyszłości, 42, 156–161. 2023-12-02.

<sup>15</sup> Karpusheva A. Fighting a War: Svetlana Alexievich's Prose between History and Literature - M.A., University of Kansas, 2014.

<sup>16</sup> Konatar B. Gender and propaganda at the crossroads (the case of Svetlana Alexievich) - German and Russian Studies electronic theses and dissertations (MU) 2019 MU theses - Access restricted to UM.

<sup>17</sup> Myers H. Svetlana Aleksievich's changing narrative of the Soviet-Afghan War in Zinky Boys - Canadian Slavonic Papers / Revue Canadienne des Slavistes Vol. 59, No. 3/4, Special Issue: Svetlana Aleksievich: the writer and her times (September-December/septembre-décembre 2017), pp. 330-354.

ma'naviyat tarixida urush kategoriyasi tushunchasi, uning falsafiy va adabiy talqinini aniqlash;

urush mavzusidagi asarlarni turkumlashtirish orqali inson tabiatining eng ezgu va eng yovuz darajasigacha boradigan murakkab ruhiyat o'zgarishi chegaralarini o'rganish;

jahoniy urush mavzusidagi epik asarlarni qiyosiy tahlil etish va E.Xemingvay va S.Alekseyevich asarlari misolida XX asr jahon adabiyotida jahon urushlari davrida individual va ijtimoiy qadriyatlar konflikti masalasini yoritish;

urush mavzusidagi romanlarda badiiy obrazlarni ilmiy-falsafiy o'rganish orqali tarixiy xotira va ma'naviy saboq, o'lim haqiqati va hayotiy yo'qotishlar dahshatini badiiy talqin qilish orqali tinchlik qadriyatlarining shaxs ma'naviy kamolotiga ta'sirini xolisona baholash;

insoniyatning XX-asrdagi eng kuchli ma'naviy inqirozi hisoblangan ikki jahon urushi haqidagi romanlarda shaxs ma'naviyati shakllanishi jarayonining badiiy-falsafiy talqinini yaratishga doir tavsiyalar va amaliy takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida urush mavzusida yozilgan romanlarda inson shaxsiyati va ma'naviyatining shakllanish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Ernest Xemingvayning "Alvido, qurol!" hamda Svetlana Aleksiyevichning "Ayolning urushdan yiroq qiyofasi" romanlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, kontent analiz usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

"ma'naviyat tarixi va nazariyasi" ixtisosligi doirasida urush kategoriyasining mohiyati, uning inson ma'naviyatiga ta'siri, ijtimoiy muhitda shakllanish mexanizmlari (*taqqoslash, hukmronlik istagi, tahdidga javob berish, ziddiyatlar*) falsafiy-mantiqiy tizim sifatida asoslangan;

urush mavzusidagi asarlarni turkumlashtirish mezonlari qiyosiy tadqiq etilib, E.Xemingvay va S.Alekseyevich asarlari misolida XX-asr jahon adabiyotida insonning ma'naviy-ruhiy qudrati har qanday qurol va zo'ravon rejimdan ustun va qudratli ijtimoiy hodisa sifatida talqin etilganligi isbotlangan;

urush mavzusidagi romanlar ma'naviy-aksiologik, ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan insoniyatning ma'naviy inqiroziga va umuminsoniy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatadigan salbiy oqibatlarining sabablari tizimlashtirilgan;

urush mavzusiga oid asarlarda tarixiy xotira va ma'naviy saboq, inson hayotidagi o'lim haqiqati, yo'qotishlar dahshati, tinchlik va bag'rikenglikka asoslangan ma'naviy qadriyatlarining shakllanishi, ularning shaxs ma'naviy kamolotiga ko'rsatadigan ta'siri falsafiy nuqtai nazaridan ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

shaxs ma'naviyati shakllanishi jarayonining badiiy-falsafiy talqin qilgan Nobel mukofoti sovrindorlari ijodi tizimlashtirilib, bu yo'nalishdagi muammolarni bartaraf etishdagi yangi ilmiy tushuncha va paradigmalar ishlab chiqilgan. Ma'naviyat tarixida urush kategoriyasi tushunchasi, uning falsafiy va adabiy talqini mexanizmlari asoslangan;

zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida urush mavzusidagi romanlarda shaxs ma'naviyati shakllanishi jarayonining badiiy-falsafiy talqinini o'rganishning asosiy yondashuvlarni umumiy aloqadorligi, mohiyati va o'zaro

bog'liqligi ochild berilgan;

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, OAV muassasalari hamda axborot tarqatish uchun mas'ul muassasa va tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq tarbiyaviy tadbir ishlanmalarini yaratishga doir xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro hamda respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatiga kirgan maxsus va xorijiy mamlakatlar jurnallarida chop etilgan maqolalar, xulosa, amaliy taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hozirgi davr odamlarining ma'naviy shakllanish jarayonida urush haqidagi romanlarning ahamiyatini aniqlashda hamda badiiy ifoda yaxlitlashuvi tamoyillarini, talqin, tahlil orqali o'ziga xosligini ko'rsatishda, ijodkor fitrati shakllanishida ifoda ruhiyati, badiiy va adabiy talqin masalalari to'g'risida umumiy tasavvur berishga yordam beradi. Shuningdek, urush va tinchlik to'g'risidagi ijtimoiy-falsafiy bilimlarni ilmiy-uslubiy jihatdan kuchaytirish hamda ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatda falsafa, axloqshunoslik, siyosatshunoslik, psixologiya, ma'naviyatshunoslik mutaxassisliklari bo'yicha o'quv dasturlari doirasida foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda o'z aksini topgan nazariy xulosalar, amaliy takliflar va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutida, Yozuvchilar uyushmasida, "Ma'naviyat va ma'rifat markazi"ning joylardagi bo'lim va bo'linmalarida, ta'lim muassasalarida hamda aholining turli qatlamlari uchun tashkil etiladigan davra suhbatlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda metodologik tavsiya sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Urush mavzusidagi romanlarda shaxs ma'naviyati shakllanishi jarayonining falsafiy talqiniga oid olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

"ma'naviyat tarixi va nazariyasi" ixtisosligi doirasida urush kategoriyasining mohiyati, uning inson ma'naviyatiga ta'siri, ijtimoiy muhitda shakllanish mexanizmlari (*taqqoslash, hukmronlik istagi, tahdidga javob berish, ziddiyatlar*) falsafiy-mantiqiy tizim sifatida asoslangan nazariy xulosa va taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 2023-2024-yillardagi tasdiqlangan reja asosida amalga oshirilgan konferensiya, forum va taqdimotlarda ijodiy foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 18-martdagi 329-son ma'lumotnomasi) Natijada, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan konferensiya, forum va taqdimotlarning samaradorligiga xizmat qilgan;

urush mavzusidagi asarlarni turkumlashtirish mezonlari qiyosiy tadqiq etilib, E.Xemingvay va S.Alekseyevich asarlari misolida XX-asr jahon adabiyotida insonning ma'naviy-ruhiy qudrati har qanday qurol va zo'ravon rejimdan ustun va qudratli ijtimoiy hodisa sifatida talqin etilganligiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi" davlat muassasida telekanal orqali amaliy natijalarga yo'naltirish va ijtimoiy

tarbiyaga hissa qo'shish maqsadida sohaga oid ko'rsatuvlarning ssenariylarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi" davlat muassasining 2025-yil 4-fevraldagi 1-09-113-son dalolatnomasi). Natijada, televideniye orqali namoyish etilayotgan urush va tinchlik mavzusidagi asarlarda berilgan umuminsoniy qadriyatlar hamda ijtimoiy-axloqiy tarbiya sohasidagi g'oyalarni aholining keng qatlamiga yetkazishda xizmat qilgan;

urush mavzusidagi romanlar ma'naviy-aksiologik, ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan insoniyatning ma'naviy inqiroziga va umuminsoniy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatadigan salbiy oqibatlarining sabablariga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan "UzReport TV" axborot agentligi tomonidan tasvirga olingan "Bitmas xazina" ko'rsatuvi dasturi va ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan ("UzReport TV" axborot agentligining 2025-yil 31-yanvardagi 5-son dalolatnomasi). Natijada, "Bitmas xazina" ko'rsatuvini suratga olishda metodologik manbaa sifatida e'tirof etilgan;

urush mavzusiga oid asarlarda tarixiy xotira va ma'naviy saboq, inson hayotidagi o'lim haqiqati, yo'qotishlar dahshati, tinchlik va bag'rikenglikka asoslangan ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi, ularning shaxs ma'naviy kamolotiga ko'rsatadigan ta'siri bo'yicha berilgan taklif va tavsiyalardan "Yangi asr avlodi" nashriyotida 2024-yil davomida o'tkazilgan "Tarjimonlar bilan uchrashuv", "Mahorat darsi", "Shaxsiy xona" asari taqdimoti, noshirlar va mualliflar seminarida, "Kitob klubi" kabi uchrashuvlarda foydalanilgan ("Yangi asr avlodi" nashriyotining 2025-yil 27-yanvardagi 5-son dalolatnomasi). Natijada, urush mavzusidagi romanlarda insonlar obrazlarini ilmiy tasniflash va uni shaxs ma'naviy kamolotiga ta'sirini xolisona baholash bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 7 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy material chop etilgan. Jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 140 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

"Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati asoslangan, tadqiqot yangiligi va o'rganilishi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning ilmiy tadqiqot ishi rejalari bilan bog'liqligi bayon etilgan, maqsadi hamda vazifalari aniqlangan, manbalari, tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi sanab o'tilgan, ishning tarkibiy qismlari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Badiiy adabiyotda urush mavzusining genezisi va o'rganilishi nazariy asoslari**" nomli birinchi bobining "**Urush kategoriyasining falsafiy va adabiy talqinlari**" paragrafida urush fenomenining falsafiy

konseptualizatsiyasi, uning adabiy diskursdagi aksi va gnoseologik talqin mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda antik davrdan to zamonaviy davrgacha bo'lgan falsafiy tafakkurda urush kategoriyasining shakllanish jarayoni, mazkur kategoriya orqali inson, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarning dialektik ifodalanish shakllari aniqlanadi. Shu bilan birga, urushning san'at, ma'naviyatshunoslik va adabiyotshunoslikdagi epistemologik va aksiologik o'rni falsafiy-metodologik mezonlar asosida izohlanadi.

Urush kategoriyasi insoniyat tarixining ajralmas ontologik komponenti sifatida namoyon bo'lib, inson faoliyatining ijtimoiy, gnoseologik va aksiologik parametrlarini o'zida mujassam etadi. U inson aqliy va irodaviy faoliyatining mahsuli bo'lish bilan birga, subyektning o'ziga ham determinallovchi ta'sir ko'rsatadi; uning dunyoqarash paradigmasini o'zgartiradi, yangi antropologik va sotsiopsixologik tiplarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Shu tariqa urush insoniyat madaniy xotirasi va ijtimoiy evolyutsiya jarayonining strukturaviy elementi sifatida qaraladi. Falsafa tarixida urushning mavjudligini ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy va muqarrar shakli sifatida asoslashga urinuvchi yondashuvlar ham mavjud. Xususan, maltusianizm, zo'rlik nazariyasi va geopolitik paradigmalarning vakillari urushni progressiv jarayon sifatida talqin etgan. Biroq ushbu konsepsiyalar ontologik hamda aksiologik jihatdan asossiz bo'lib, ularning metodologik bazasi ilmiy tahlil mezonlariga javob bermaydi. XX asrda kechgan ikki jahon urushi mazkur nazariyalar amaliy qo'llanilishining destruktiv oqibatlarini ochib berdi. Ushbu urushlar mohiyat e'tibori bilan geosiyosiy manfaatlar va global resurslarni qayta taqsimlash jarayoniga qaratilgan bo'lib, insoniyat tarixida mislsiz demografik, sotsiokultural va axloqiy inqirozlarni yuzaga keltirdi. Hozirgi davrda yadro va yuqori texnologik qurollarning intensiv rivojlanishi natijasida urush siyosiy-mafkuraviy vosita sifatida funksional mazmunini yo'qotgan bo'lsa-da, geosiyosiy diskursdagi qarama-qarshiliklar hali ham global tizim barqarorligiga tahdid solmoqda.

Falsafiy tafakkur tarixida urush fenomeniga berilgan baholar va talqinlar o'zaro keskin farqlanadi. Ayrim mutafakkirlar uni insoniyat taraqqiyotining zaruriy bosqichi sifatida, boshqalar esa ijtimoiy-axloqiy inqirozning eng yuqori ko'rinishi sifatida izohlaganlar. G. V. F. Hegel urushni ijtimoiy hayotning dialektik jarayoni sifatida talqin etib, uning nazarida urush xalqlarning "ma'naviy salomatligini saqlovchi" mexanizm vazifasini bajaradi. Uning fikricha, urush jamiyatning inert holatga tushishini, ruhiy parokandalikka berilishini bartaraf etuvchi, milliy birlikni saqlab qoluvchi omildir. F. Nitshe o'zining aksiologik qarashlarida urush va jasoratni "buyuk ishlarning manbai" sifatida e'tirof etadi<sup>18</sup>. U urushni inson irodasining yuksak namoyoni, kuch va irodaviy qudratni sinovdan o'tkazuvchi holat deb biladi. P. J. Prudon esa urushga teologik-metafizik mazmun yuklab, uni "ilohiy hodisa, axloqiy va muqaddas voqelik, diniy vahiyning alohida ko'rinishi" deb ta'riflaydi. Bunday yondashuvda urush insoniyat tarixidagi ijtimoiy muvozanatni tiklovchi, adolat mezonlarini yangilovchi jarayon sifatida talqin qilinadi. Biroq falsafa tarixida pasifistik paradigmani ifodalovchi mutafakkirlar ham mavjud. Rotterdamlilik faylasuf Erazm urushni "insoniyatning eng yovuz illatlarining mujassam ifodasi" sifatida baholab, uni "vijdon va e'tiqodning yemirilishiga, axloqiy qadriyatlarning buzilishiga olib keluvchi ijtimoiy illat" deb hisoblaydi. Uning fikricha, urush birodarlik, insonparvarlik va tinchlik kabi

<sup>18</sup> Ницше Ф. Полное собрание сочинений: в 13 т. М: Культурная революция, 2005–2014. – С.18

universal qadriyatlarning inkori sifatida namoyon bo‘ladi. XX asrda A. Eynshteyn va Z. Freyd o‘rtasidagi “Urush muqarrarmi?” nomli maktublar almashinuvida mazkur masalaga psixoanalitik va sotsiobiologik yondashuv taklif etiladi<sup>19</sup>. Eynshteyn urushni inson tabiatidagi manfaatlar to‘qnashuvining tabiiy natijasi deb bilsa, Freyd zo‘ravonlikni “insonning o‘z manfaatlarini ta‘minlash yoki qarama-qarshi irodani bo‘ysundirishga qaratilgan instinktiv harakat” sifatida talqin etadi. Adabiy tafakkurda ham urush masalasining aksiologik talqinlari xilma-xildir. Volter urushni “insonni insonlik mohiyatidan judo etuvchi, uni yovvoyi mavjudot darajasiga tushiruvchi holat” deb baholagan. L. N. Tolstoy urushning ijtimoiy oqibatlarini “ommaviy qashshoqlik va axloqiy buzuvchilikning ildizi” sifatida ko‘rsatgan. Erix Mariya Remark urushni ontologik jihatdan insoniy tajribaning eng chuqur fojeasi deb baholab, “urushning haqiqiy mohiyatini faqat murdalar anglay oladi” degan xulosaga kelgan. Shunday qilib, falsafiy va adabiy tafakkurda urush fenomeni ikki asosiy epistemologik yo‘nalishda talqin qilinadi: bir tomondan, uni insoniyat taraqqiyotining zaruriy bosqichi deb biluvchi ontologik-pozitiv yondashuv, ikkinchi tomondan esa, urushni ma‘naviy-axloqiy inqiroz sifatida baholovchi aksiologik-negativ paradigma. Mazkur ikki yo‘nalishning qarama-qarshiligi urush fenomenining murakkab, ko‘p qatlamli falsafiy tabiatini ochib beradi.

Urushlar inson ijtimoiy mavjudligining ajralmas atributi va sotsiokulturologik hodisasi sifatida tarixiy rivojlanishning barcha bosqichlarida namoyon bo‘lgan. U madaniyat tizimining tarkibiy elementi bo‘lib, insoniyatning ontologik tajribasida uzluksiz qayta ishlab chiqiladigan fenomenal shakl sifatida qaraladi. Urush mavzusining falsafa va badiiy adabiyotda uzluksiz dolzarb bo‘lib kelishi, avvalo, ushbu hodisaning antropologik, aksiologik va ekzistensial mazmuni bilan izohlanadi. San‘at va adabiyotda urush motivining barqarorligi o‘quvchining jangovar voqealarga estetik qiziqishi bilan emas, balki inson mohiyatining, uning axloqiy tanlovi va ruhiy chidamliligining chegaraviy holatlarda namoyon bo‘lishini tahlil qilish imkoniyati bilan bog‘liqdir. Urush badiiy ongda insoniyatning ichki dunyosini, ma‘naviy inqiroz va o‘zini anglash jarayonini ifodalovchi universal metafora vazifasini bajaradi. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan urush mavzusi global madaniyat tarixidagi asosiy tematik paradigmalar sirasiga kiradi. Bu mavzu deyarli barcha milliy adabiyotlarda mavjud bo‘lib, ularning semantik strukturasi tarixiy xotira va kollektiv ongni shakllantiruvchi konseptual asoslardan biri sifatida faoliyat yuritadi. Yozuvchilar, hatto bevosita harbiy harakatlarda ishtirok etmagan bo‘lsalar ham, urushni insoniyat taqdiriga chuqur iz qoldiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida idrok etadilar. Urushning badiiy talqinida insoniyatga yetkazilgan zarar, tarixiy xotira va ma‘naviy oqibatlar markaziy o‘ringa chiqadi. Bunday asarlar urushni g‘ayriinsoniylikning estetik niqobidan xoli holda, real ontologik voqelik sifatida aks ettirishga intiladi. Demak, adabiyotda urushning tasviri nafaqat estetik maqsadga, balki gnoseologik va aksiologik funksiyaga ham ega: u inson mohiyatini ochish, tarixiy saboqlarni badiiy ongda mustahkamlash va kelajak avlodni zo‘ravonlik va tajovuzkorlikning takrorlanishidan ogohlantirishga xizmat qiladi.

Bobning **“Urush mavzusidagi asarlar: tarix va talqin”** nomli ikkinchi paragrafida insoniyat tarixi davomida urushlar doimiy ravishda hal qiluvchi omil bo‘lib kelgani, ularning jamiyat rivojiga ta‘siri va adabiyotda aks etishi haqida so‘z

<sup>19</sup> Freyd Z. Urush muqarrarmi? // Zigmund Freydning Albert Eynshteynga maktubi, 1932.

boradi. Qadimgi yozma manbalardan tortib, og‘zaki ijod va epik dostonlar orqali urush va qahramonlik mavzusi tasvirlangan. Urushlar nafaqat tarixiy voqelik, balki adabiy obrazlar va g‘oyalarni shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. G‘arb va Sharq falsafasida urush mavzusining turli davrlarda qanday ifodalangani, Renessans va gumanizm g‘oyalarining adabiy jarayonlarga ta‘siri, xususan, o‘zbek adabiyotidagi qahramonlik dostonlari tahlil etilgan. Bobda urushlar orqali insoniyat tafakkuri va madaniyatida yuz bergan o‘zgarishlar va adabiy taraqqiyot yo‘nalishlarini yoritib beriladi.

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixi o‘z mohiyatiga ko‘ra urushlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tarixiy jarayonlarning aksariyati qurolli to‘qnashuvlar va ularning oqibatlari bilan belgilanadi. Shu bois, insoniyat tarixi ko‘p jihatdan urushlar tarixining aksi sifatida namoyon bo‘ladi. Urush fenomeni qadimiy madaniyatlarda nafaqat ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, balki badiiy-estetik idrok obyekt sifatida ham shakllangan. Barcha xalqlar og‘zaki ijodida qahramonlik eposlari va jangnomalar mavjud bo‘lib, ular insoniyat tafakkurining dastlabki tarixiy-madaniy bosqichlarida urushni idrok etishning semantik manbai sifatida namoyon bo‘lgan. Ushbu eposlar jamiyatning kollektiv xotirasini mustahkamlovchi, ijtimoiy birlikni ta‘minlovchi va qahramonlik, jasorat, fidoyilik kabi qadriyatlarni legitimlashtiruvchi ideologik vosita sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Qadimgi Yunoniston va Rim adabiy merosida bu holat Gomerning “Iliada”, Vergiliyning “Eneida” asarlarida, shuningdek, Gerakl, Tesey, Axilles, Ayaks, Odissey, Eney kabi mifologik obrazlar orqali ifodalangan. Bu obrazlar urushni insoniy qudrat, jasorat va axloqiy fazilatlarni sinovdan o‘tkazuvchi ontologik maydon sifatida talqin etadi. Xuddi shuningdek, rus folkloridagi Ilya Muromets, Dobrinya Ivanovich, Alesha Popovich singari epik qahramonlar, g‘arb eposlaridagi “Roland haqida qo‘shiq”, “Sid haqida qo‘shiq”, “Nibelunglar haqida qo‘shiq”, “Beovulf haqida doston”, “Xildebrant haqida qo‘shiq”, “Artur va dumaloq stol” kabi jangnomalar ham urushni axloqiy-aksiologik sinov maydoni sifatida namoyon etadi. Sharq adabiy merosida esa urush motivining badiiy-falsafiy ifodasi “Ramayana”, “Mahabhorat”, “Gilgamish”, “Manas”, “Qirqqiz” singari eposlarda, shuningdek, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida mujassamdir. Mazkur manbalarda urush nafaqat tarixiy voqelikning aks ettirilishi, balki insonning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini, jasorat, sadoqat va fidoyilikni aniqlovchi asosiy badiiy-me‘yoriy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, qadimiy eposlar tizimi urushni antropologik va aksiologik nuqtayi nazardan anglashning dastlabki bosqichi sifatida baholanadi. Ular inson va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy dialektikani urush orqali ifodalab, tarixiy-madaniy jarayonlarda urush kategoriyasining semantik va estetik funksiyalarini shakllantirgan.<sup>20</sup>

XX asr G‘arb adabiy jarayonida urushga qarshi estetik va aksiologik tendensiyalar kuchayib, badiiy tafakkurning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunga asosan Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarining insoniyat sivilizatsiyasiga keltirgan fojiali oqibatlari sabab bo‘ldi. Urushning global miqyosdagi vayronkorlik, ma‘naviy tanazzul va ruhiy travmalar bilan yakunlanishi G‘arb madaniyatida pasifistik tafakkur paradigmasining shakllanishiga olib keldi. Birinchi jahon urushidan so‘ng Yevropa mamlakatlarida pasifizm (tinchlikparvarlik) falsafasi badiiy va falsafiy diskursning asosiy yo‘nalishiga aylandi. Bu holat adabiyotda urushga qarshi ruhiyatning kuchayishi, insonning

<sup>20</sup> Muxtor A. Ko‘hna dunyo qomusi. // Homer. Iliada. – Toshkent: “Adabiyot va san‘at”, 1988. – B.7.

ichki dunyosidagi fojaviylik, tushkunlik ba ekzistensial bo'shliqqa urg'u berilishida namoyon bo'ldi. Mazkur tendensiya "yo'qotilgan avlod" deb nom olgan adabiy harakatda o'zining eng to'liq estetik ifodasini topdi. Ushbu adabiy oqim vakillari Ernest Heminguey, Frensis Skott Fitsjerald, Erix Mariya Remark, Richard Oldington, Uilyam Folkner urushdan keyingi insonning ekzistensial izolyatsiyasi, ma'naviy dezorientatsiyasi ba qadriyatlar tizimidagi inqirozni badiiy shaklda ochib berdilar. "Yo'qotilgan avlod" atamasi falsafiy jihatdan insoniyatning tarixiy tajribasi jarayonida o'z hayotiy ma'nosini, ishonchini ba axloqiy tayanchlarini yo'qotgan avlodni anglatadi. Mazkur adabiy yo'nalishda urush insoniyatning yaratuvchanlik salohiyatini parchalovchi, tafakkurni destruktiv holatga keltiruvchi sotsiokultur hodisa sifatida talqin qilinadi. Inson madaniy taraqqiyoti paradoksal xususiyat kasb etadi: u yaratuvchanlik jarayonida yo'q qilishni, rivojlanish jarayonida esa buzilish va vayronkorlikni o'z ichiga oladi. Shu ma'noda, G'arb falsafiy tafakkurida "erishish uchun yo'qotish zaruriyati" degan konseptual tamoyil shakllanadi. Urushning falsafiy-psixologik talqinlari badiiy adabiyotda insonning ichki ruhiy holatlari – aqldan ozish, depressiya, ekzistensial bo'shliq ba umidsizlik shaklida ifodalanadi. Urush romanlaridagi sotsiopsixologik obrazlar orqali insoniyatning o'z mohiyatidan yiroqlashuvi ba ma'naviy tanazzuli namoyon bo'ladi. Zamonaviy G'arb adabiyotida urushning ma'nosizligi, ya'ni ontologik absurd sifatidagi talqini ustuvor o'rin egallaydi.

Uchinchi paragraf **"Adabiyot tarixida jahon urushlariga oid asarlar tahlili"** deb nomlanadi. Unda jahon urushlari haqidagi asarlar nafaqat adabiy merosning muhim qismi, balki insoniyatning ma'naviy hayoti va falsafiy-axloqiy izlanishlari uchun ham katta ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. Urush adabiyoti orqali shaxsning suveren irodasi, qadr-qimmatini va insonparvarlikning himoyasi muhim deb hisoblanadi. G'arb va Sharq yozuvchilari tomonidan urush voqealari bevosita guvoh sifatida yoritilgani va bu adabiyot tarixida alohida o'rin tutayotgani ko'rsatiladi. Bu asarlar nafaqat tarixiy voqealarni yoritadi, balki kelajak avlod uchun ibrat va ma'naviy saboq sifatida xizmat qilishi qayd etiladi.

Urush mavzusiga oid badiiy asarlar jahon adabiyotining semantik va aksiologik jihatdan eng muhim qatlamlaridan birini tashkil etadi. Ushbu turkumdagi asarlar insoniyatni hanuzgacha tashvishga solib kelayotgan global falsafiy va axloqiy muammolar – zo'ravonlik, yovuzlik, inson qadr-qimmatini, axloqiy tanlov va mas'uliyat masalalarini yoritish orqali o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Bugungi geosiyosiy keskinliklar, uchinchi global mojaro xavfining ortishi ushbu mavzuning yangicha falsafiy rezonansini keltirib chiqarmoqda. Mazkur hodisaning badiiy talqinlari tarixiy bosqichlarga ko'ra turlicha falsafiy-estetik yo'nalishlarda shakllanib kelgan. Antik va o'rta asrlar adabiyotida jangovar voqealar qahramonlik, fidoyilik va jasorat timsoli sifatida ideallashtirilgan bo'lsa, XIX–XX asr adabiy jarayonida insoniyatning ma'naviy inqirozi, mavjudlikning ma'nosizligi va axloqiy dezintegratsiyasi markaziy o'ringa chiqdi. XX asrning global falokatlari adabiy tafakkurda inson va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni, ruhiy buzilishlarni va qadriyatlar tizimidagi inqirozni chuqur yoritishga xizmat qildi. Birinchi jahon mojaro davri asarlarida hayotning befoydaligi, shaxsiy iztiroblar va ruhiy parokandalik tasvirlari ustun bo'ldi. Ikkinchi yirik to'qnashuv esa axloqiy mas'uliyat, inson fojiasi va tinch aholining ruhiy jarohatlarini markazga qo'ydi. Bu davr adabiyotida inson qadr-qimmatini, insonparvarlik va axloqiy me'yorlarni yemiruvchi ijtimoiy muhit badiiy tadqiqot markaziga aylandi.

Obrazlar orqali zo‘ravonlikning ontologik absurdligi, ma’naviy inqiroz va sotsiologumanitar falokatning ko‘lami ochib berildi. Shu yo‘sinda, front tajribasi va tarixiy xotira tasvirlari inson qadriyatlarini evolyutsiyasining aksiologik manbai sifatida namoyon bo‘ldi. Bunday asarlar faqat tarixiy voqealikni emas, balki inson taqdirining falsafiy-axloqiy qirralarini – vatan, o‘lim, muhabbat, birodarlik, g‘alaba va mas‘uliyat motivlarini yoritadi. Qurolli to‘qnashuv haqidagi badiiy meros insoniyatning kollektiv xotirasini shakllantiruvchi epistemik manba sifatida qimmatga ega bo‘lib, kelajak avlodlar uchun ogohlantiruvchi ma’naviy ahamiyatni saqlab qoladi. Shu bois bu turkumdagi asarlar nafaqat tarixiy tajribani estetik idrok etadi, balki insoniyatning kelajak ma’naviy yo‘nalishlarini belgilashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotning **“Urush mavzusidagi romanlarning shaxs ma’naviy shakllanishi jarayoniga ta’siri”** nomli ikkinchi bobi uch paragrafdan iborat. **“Nobel mukofoti sovrindorlari ijodida urush hodisasi va uning inson kamolotida tutgan o‘rni”** nomli paragrafda Nobel mukofotining tarixi, uning yo‘nalishlari haqida ma’lumotlar keltiriladi. Adabiyot sohasida mukofotlangan adiblarning ijodiy faoliyati va siyosiy sharoitiga e’tibor qaratiladi. So‘ng bir qator yozuvchilar tomonidan yozilgan urush haqidagi romanlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bu asarlarning inson kamolotini anglashda qanday ahamiyatga ega ekani yoritiladi.

Nobel mukofoti – adabiyot sohasida insoniyat tafakkuriga eng chuqur falsafiy, estetik va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatgan ijodkorlarni e’tirof etuvchi yuksak xalqaro mukofotdir<sup>21</sup>. Ushbu tadqiqotda Nobel laureatlari Ernest Xeminguey va Svetlana Alekseyevich ijodining falsafiy mohiyati, ularning asarlarida inson va urush, jasorat va ma’naviyat o‘rtasidagi murakkab dialektika tahlil qilinadi. Ernest Xeminguey hayoti va ijodi Ikkinchi jahon mojaro voqealari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning estetik dunyoqarashi ko‘p jihatdan front tajribasi ta’sirida shakllangan. Adib asarlarining ichki ruhini harakat, kurash va irodaviy jasorat tashkil etadi. Muallif o‘z badiiy konsepsiyasida eng og‘ir sharoitlarda ham shaxsiy qadr-qimmatini, insoniy sha’nini saqlab qolishga qodir, kuchli irodali va g‘ururli inson obrazini markazga qo‘yadi. Xemingueyning badiiy konsepsiyasida insonning axloqiy yengilmasligi uni “inson” nomiga munosib qiluvchi asosiy aksiologik mezon sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan uning qahramonlari ekzistensial izolyatsiya, yolg‘izlik va umidsizlik holatida ham ichki ruhiy barqarorlikni saqlab qolishga intiladilar. Bu holat yozuvchining “fojiali qahramonlik” (tragik heroizm) konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. “Alvido, qurol!” romani nashr etilganidan so‘ng adib asarlarining ayrim mamlakatlarda (Italiya, Germaniya) taqiqlanishi, uning ijodida inson erkinligi va individual qadriyatlar himoyasiga qaratilgan g‘oyalar qanday kuchli mafkuraviy rezonans uyg‘otganini ko‘rsatadi. Xeminguey ijodidagi fojialik elementi pessimizm emas, balki inson ruhining sinov orqali poklanishi, o‘zligini anglash jarayonini ifodalovchi falsafiy-estetik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, yozuvchi mag‘lubiyatning o‘zida g‘alabani, fojiada esa ma’naviy yuksalishni ko‘radi. Uning estetik konsepsiyasida inson mavjudlikning barcha og‘ir sinovlariga qaramay, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini yo‘qotmaydigan ma’naviy barqaror mavjudot sifatida tasdiqlanadi.

Svetlana Alekseyevich 2015-yilda adabiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan birinchi belorus yozuvchisi bo‘lib, uning ijodiy merosi urush

<sup>21</sup> Ermuhammad H. Nobelga kim munosib? // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2009 yil 39-son.

mavzusining aksiologik va sotsiologumanitar talqini bilan ajralib turadi. Adiba o‘z asarlarida qurolli to‘qnashuvlarni oddiy tarixiy voqelik sifatida emas, balki inson ruhiyatini, vijdonini, qadriyat tizimini sinovdan o‘tkazuvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida yoritadi. Alekseyevichning 1983-yilda yozilgan “Urushning ayoldan yiroq qiyofasi” nomli hujjatli-romanik asari urush adabiyotida yangi epistemologik yondashuvni boshlab bergan. Muallifning asosiy diqqat markazida – urushda ishtirok etgan ayolning subyektiv tajribasi, ruhiy kechinmalari va tarixiy xotiradagi o‘rni turadi. Boshqa an’anaviy urush adabiyotlaridan farqli ravishda, Alekseyevich jang maydonidagi voqealarni erkaklar nigohidan emas, balki ayollar tajribasi va ularning ichki dunyosi orqali yoritadi. Adiba o‘zining badiiy-hujjatli metodida real shaxslar – artilleriyachilar, zenitchilar, snayperlar, partizanlar, sapyorlar, hamshiralalar va oddiy front orti xizmatchilari bilan olib borgan suhbatlarga tayangan. Shu orqali u urush tarixining “insoniy manzarasi”ni – ma’naviy og‘riq, yo‘qotish, vijdon azobi va axloqiy tanlovlar tizimini real guvohlarning og‘zi bilan tiklaydi. Alekseyevichning konsepsiyasida qurolli mojaro inson kamolotining muhim sinov maydoni sifatida talqin etiladi. Uning asarlarida zo‘ravonlik jarayoni nafaqat vayronkor kuch sifatida, balki insonning ichki dunyosini, irodaviy qudratini va axloqiy mas’uliyatini ochuvchi mezon sifatida tahlil qilinadi. Shu jihatdan, adibaning asarlari urushni insonning ma’naviy o‘zini anglash jarayonidagi ekzistensial tajriba sifatida ko‘rsatadi. Alekseyevich ijodida qurolli to‘qnashuvning psixik-ijtimoiy oqibatlarini chuqur tahlil qilinadi: inson qadri qayta baholanadi, ma’naviy inqiroz inson o‘zligini anglashga sabab bo‘ladi. Adiba badiiy-hujjatli uslub orqali urushning oq va qora tomonlarini, ya’ni insondagi ezgulik va yovuzlikning dialektik birligini ochib beradi. Shunday qilib, Nobel mukofoti sovrindorlarining jumladan, Ernest Xeminguey va Svetlana Alekseyevich ijodining umumiy falsafiy yo‘nalishi qurolli mojaro orqali insoniyat ma’naviyatining transformatsiyasini tadqiq etishdan iboratdir. Bu ikki ijodkor asarlarida insonni zo‘ravonlik, yo‘qotish va ma’naviy sinovlar orasida o‘zligini saqlab qoluvchi mavjudot sifatida tasdiqlaydilar.

Bobning ikkinchi paragrafi **“Urush mavzusidagi asarlarda erk g‘oyasining ma’naviy mohiyati ifodasi”** deb nomlangan bo‘lib, unda Ernest Xemingueyning “Alvido, qurol!” romani tahlil qilinadi. Birinchi jahon urushi davridagi voqealar, inson taqdiri, muhabbat va urushning vayronakor oqibatlarini haqida so‘z boradi. Paragrafda romanning asosiy qahramonlari Frederik Genri va Ketrin Barkli munosabatlari, ularning ichki kechinmalari va ruhiy holatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, muallifning urushga bo‘lgan murosasiz munosabati va uning realistik uslubi alohida ta’riflangan. Unda urushning haqiqiy aybdorlari kimligi badiiy ifoda orqali ko‘rsatilgani, insonparvarlik va tinchlik g‘oyalari ustuvorligi yoritilgan.

“Alvido, qurol!” (1929) Ernest Hemingueyning Birinchi jahon mojaro davrida inson va urush o‘rtasidagi murakkab aksiologik munosabatlarni yoritgan realistik romanidir. Asar o‘zining badiiy-falsafiy yo‘nalishi bilan adib ijodining yetuk bosqichini ifodalaydi hamda insonning ma’naviy o‘zlikni anglash, erkka intilish va zo‘ravonlikka qarshi ichki qarshilik masalalarini markazga qo‘yadi. Roman fonida Birinchi jahon voqealari tasvirlangan bo‘lsa-da, asarning asosiy mazmuni qurolli to‘qnashuvning o‘zidan ko‘ra ko‘proq inson ruhiyatiga, axloqiy tanlovlariga va ma’naviy transformatsiyasiga qaratilgan. Heminguey urushni tarixiy voqea emas, balki insoniyat ma’naviyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatuvchi, mavjudlikning gnoseologik sinovi sifatida talqin qiladi. Asar qahramoni Frederik Genri

yoʻzuvchining avtobiografik tajribasidan oʻtgan shaxsiy va falsafiy timsol boʻlib, u orqali muallif insonning ichki oʻzgarish, maʼnaviy oʻsish va erkinlikni anglash jarayonini tadqiq etadi. Dastlab urushni nomuayyan ijtimoiy faoliyat sifatida idrok etgan qahramon asta-sekin bu jarayonning maʼnosizligini va inson qadr-qimmatini yemiruvchi mohiyatini angelaydi. Shu jarayon orqali u zoʻravonlik muhitidan chekinib, vijdoniy ozodlik sari harakat qiladi. Genrining ruhiy evolyutsiyasi muhabbat syujetlari bilan uzviy bogʻlangan. U Ketrin Barkli bilan boʻlgan munosabatlarida hayotning yangi aksiologik oʻlchovini topadi – muhabbat urushning maʼnosizligini yenguvchi maʼnaviy kuch sifatida namoyon boʻladi. Shu bois romanda sevgi insoniylikni saqlab qolish va erkin shaxs sifatida yashash imkonini beruvchi yagona vosita sifatida talqin etiladi. Asarda inson erkinligi gʻoyasi markaziy oʻrinni egallaydi. Heminguey uchun haqiqiy erkinlik – bu insonning tashqi zoʻravonlikdan, mafkuraviy tazyiqlardan va ijtimoiy konformizmdan xoli boʻlishidir. Genrining jang maydonidan chekinishi, frontni tark etib, tinch hayotga qaytishga intilishi insonning ichki erkinlikka, vijdon bilan uygʻun hayot sari intilishining badiiy ifodasidir. Romanning fojiali yakuni Heminguey konsepsiyasidagi ekzistensial qarashlarni chuqurlashtiradi: inson toʻliq erkinlikka yoki mukammallikka erisha olmaydi, biroq shu yoʻldagi izlanishning oʻzi insoniy shaʼn va maʼnaviyatni tasdiqlaydi. Shunday qilib, “Alvido, qurol!” romanida yoʻzuvchi urushni insoniyatga qarshi destruktiv jarayon sifatida koʻrsatib, shaxs maʼnaviyatining tiklanish yoʻlini erk va muhabbatning falsafiy sintezi orqali talqin etadi. “Odamlar bu dunyoga shuncha jasorat olib kelganlaridan soʻng, dunyo ularni sindirish uchun halok qilishi kerak boʻladi, shu boisdan ularni oʻldiradi”,<sup>22</sup> deydi Genri. Ushbu roman oʻzbek tiliga Ibrohim Gʻafurov tomonidan tarjima qilingan va yurtimizda 1986-yilda chop etilgan.

Uchinchi paragraf **“Urush mavzusidagi asarlarda insonning maʼnaviy jihatdan yemirilishi tasviri”** deb nomlanadi. Belarus yoʻzuvchisi Svetlana Alekseyevich ijodining markazida inson va jamiyat hayotida qurolli toʻqnashuvlarning maʼnaviy-axloqiy oqibatlarini tahlil etish masalasi turadi. Adiba oʻzining hujjatli-badiiy uslubi orqali tarixiy voqealarga bevosita guvoh boʻlgan insonlarning xotiralarini qayd etib, urushni inson ruhiyatiga, ayniqsa, ayollar qalbiga koʻrsatgan taʼsir nuqtayi nazaridan yoritadi. Yoʻzuvchining eng mashhur asari “Urushning ayoldan yiroq qiyofasi” Ikkinchi jahon mojaro davrida qatnashgan ayollar xotiralari asosida yaratilgan badiiy-hujjatli roman boʻlib, unda ayolning urush tajribasiga oid gnoseologik va aksiologik tahlil markaziy oʻrinni egallaydi. Muallif besh yuzdan ortiq ishtirokchi bilan suhbat oʻtkazgan boʻlib, ushbu ogʻzaki guvohliklar asosida inson ruhiyatining zoʻravonlik sharoitidagi parokandaligi, maʼnaviy yemirilish jarayoni va qadriyatlarning inqirozi yoritilgan. Alekseyevich urushni shunchaki ijtimoiy-siyosiy voqea sifatida emas, balki inson maʼnaviyatining sinov maydoni sifatida koʻradi. Uning asarlarida ayol qahramonlar nafaqat jangchi yoki shifokor, balki ichki dunyosi, vijdoni, qadriyatlari va psixik barqarorligi sinovdan oʻtgan shaxslar sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda ayollar nafaqat jismoniy azob-uqubatlarga, balki maʼnaviy zoʻriqish va ruhiy travmalarga ham duch keladilar. Adiba ayollar bilan olib borgan intervyular orqali inson ongida kechgan ichki inqirozlarni va ularning urushdan keyingi maʼnaviy holatini ochib beradi. Unga koʻra, qurolli toʻqnashuv tugaganidan keyin ham ayollar ongida oʻtmish izlari saqlanib qoladi: yolgʻizlik,

<sup>22</sup> Alvido, qurol: roman. Ernest Xeminguey/ Tarjimon I.Gʻafurov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – B.276.

ruhiy og‘riq, travmatik xotiralar ularning ma’naviy tiklanish jarayonini murakkablashtiradi. Ko‘plab qahramonlar o‘z o‘tmish tajribasini so‘zlashga ojizlik qiladilar, chunki ular urushdan oldingi “o‘zlik” bilan keyingi hayot o‘rtasidagi bo‘shliqni his etadilar<sup>23</sup>. Alekseyevichning konsepsiyasida qurolli mojarо – bu inson qadr-qimmatining sinovdan o‘tish maydoni. Asarda inson va ayollik tabiatining buzilishi, ma’naviy yemirilish, qadriyatlar tanazzuli va ruhiy iztirob motivlari chuqur tahlil qilinadi. Yozuvchi uchun urush – nafaqat zo‘ravonlik va jismoniy og‘riq, balki insoniyatning ma’naviy tanazzulini, vijdon va insoniylik mezonlarining yo‘qolishini ifodalovchi falsafiy-aksiologik kategoriya hisoblanadi. Adibaning ayol qahramonlari o‘zlarining ruhiy qat’iyati, sabr-toqati va axloqiy mas’uliyati orqali insonparvarlik g‘oyasini himoya qiladilar. Ularning tajribasi orqali yozuvchi ayollikning nafosati, go‘zalligi va ruhiy kuchi shafqatsiz ijtimoiy voqealar fonida ham so‘nmasligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan “Urushning ayoldan yiroq qiyofasi” inson qadr-qimmatining, ayollik ruhiyatining va ma’naviy barqarorlikning sinovdan o‘tish jarayonini falsafiy darajada yoritgan asar sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Romanlardagi umuminsoniy qadriyatlarning badiiy-falsafiy talqini”** deb nomlangan. **“Asar qahramonlari misolida qadr-qimmat va ma’naviy burchning falsafiy talqini”** nomli paragrafda inson qadr-qimmatini va ma’naviy burch tushunchalarining mazmuni, ahamiyati va ularning inson hayotidagi roli tahlil qilinadi. Bu tushuncha barcha insonlar teng va qadrlilik ekani, shaxsiy hurmat, erkinlik va mas’uliyat, adolat va insof, hamda inson huquqlari muhofazasi kabi asosiy tamoyillarga tayanadi. Shuningdek, insonning ma’naviy burchlari haqida ham ma’lumot beriladi. Inson qadr-qimmatini va ma’naviy burchlarni hurmat qilish jamiyatda tinchlik, adolat va ma’naviy yuksalishni ta’minlaydigan muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi. Inson qadr-qimmatini – bu shaxsning axloqiy, ijtimoiy va huquqiy jihatdan tan olinadigan qiymatini ifodalovchi falsafiy kategoriya bo‘lib, u insonning erkinligi, huquqlari va shaxsiy mavjudligini qadrlash tamoyiliga asoslanadi. Qadr-qimmatni tan olish va himoya qilish har bir jamiyatda inson hayoti, erkinligi va farovonligini ta’minlovchi asosiy aksiologik mezondir. Ma’naviy burch insonning mas’uliyat hissini, vijdoniy qaror qabul qilish qobiliyatini va e’tiqoddagi sobitligini ifodalaydi. Bu tushuncha insonning axloqiy ongida shakllangan qadriyatlar tizimining faol ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy burch tuyg‘usi xalqimizning bir necha ming yillik tarixi, buyuk ajdodlarimiz, ota-bobolarimizning amaliy tajribasi negizida shakllanib sayqal topib kelgan. Shu bois bu tuyg‘uni har bir vatandoshimiz ongi va qalbiga singdirish orqali mamlakatimiz hayotida yuz berayotgan tub o‘zgarishlarga daxldorlik hissini shakllantirish, Vatanimizning taraqqiy etishi va gullab-yashnashiga erishish mumkin.<sup>24</sup>

Ernest Hemingueyning “Alvido, qurol!” romani insonning hayotiy qadri, muhabbat, sadoqat va iroda kabi universal fazilatlarni falsafiy-aksiologik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Asarda insonning o‘z qadr-qimmatini saqlash va himoya qilish yo‘lidagi ichki kurashi, zo‘ravonlik va o‘limga qarshi irodaviy qarshiligi markaziy o‘rinni egallaydi. Muallif insoniy matonatni – og‘ir sinovlar orasida ham o‘zligini saqlab qolish qobiliyatini eng yuksak ma’naviy fazilat sifatida talqin

<sup>23</sup> Морозова Т. Люди беды и страданий. Светлана Алексиевич. Время секунд хэнд. «Знамя» 2014, №4.

<sup>24</sup> Nazarov Q va boshqalar. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2021. – B.316.

etadi. Svetlana Alekseyevichning “Urushning ayoldan yiroq qiyofasi” asari esa inson qadri muammosini hujjatli-badiiy shaklda yoritib, ayollarning urush davridagi tajribasini ma’naviy va psixologik tahlil obyekti sifatida ko’rsatadi. Adiba Ikkinchi jahon mojarosida qatnashgan ayollar xotiralari orqali inson qadriyatlarining yemirilishi, ma’naviy inqiroz va vijdoniy og’riqni hujjatli dalillar asosida ifodalaydi. Har ikki yozuvchi ijodida inson qadri urushning destruktiv mohiyatiga qarshi qo’yilgan markaziy aksiologik mezon sifatida namoyon bo’ladi. Bunda inson hayoti, vijdoni, muhabbati va erkinligi zo’ravonlik, qo’rquv va ma’naviy tanazzul sharoitida sinovdan o’tadi. Urush holati shaxs qadr-qimmatini sinovdan o’tkazuvchi ekstremal ijtimoiy muhit sifatida talqin qilinadi: inson hayoti arzonlashgan bir paytda, uning ma’naviy barqarorligi va yashashga bo’lgan intilishi insoniyatning eng oliy qadriyati sifatida yuksaltiriladi. Urush romanlarida qahramonlar – frontdagi jangchilar, ayollar va bolalar ma’naviy jasorat, fidoyilik, hamjihatlik va insonparvarlik timsoliga aylanadilar. Ularning kurashi orqali insoniyat qadriyatlarining universal mohiyati, ma’naviy jasorat va axloqiy mas’uliyatning falsafiy mazmuni ochiladi. Shu bilan birga, bunday asarlarda urush inson ma’naviyatini buzuvchi, axloqiy me’yorlarni yemiruvchi omil sifatida talqin qilinadi. Xulosa qilib aytganda, Heminguey va Alekseyevich romanlarida qurolli to’qnashuv inson qadr-qimmatining aksiologik sinovi sifatida talqin etiladi. Bu asarlar insoniyatning ma’naviy tajribasini boyitgan, shaxs erkinligi, vijdoni va hayotning eng oliy qadriyati sifatida insonning o’zligini anglash yo’lini falsafiy asosda yoritgan asarlardir.<sup>25</sup>

Ikkinchi paragraf **“Shaxs erki va Vatan taqdiri misolida shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar integratsiyalashuvi”** deb nomlanib, unda shaxs erkinligiga oid falsafiy, diniy va huquqiy qarashlar tahlil etiladi. Inson erkinligi obyektiv shart-sharoit va vaziyatga bog’liq ekani, uning ongli faoliyati orqali namoyon bo’lishi ta’kidlanadi. Sharq va G’arb falsafasida erkinlik masalasi turlicha talqin etilgan. Shaxs erkinligi – bu insonning daxlsizlik, e’tiqod, ijod, so’z va xususiy mulk huquqi bilan bog’liq bo’lgan tabiiy holat bo’lib, u burch va mas’uliyat bilan uyg’unlikda mavjud bo’lishi lozim. Falsafiy jihatdan, erkinlik insonning o’z harakatlarini ongli tarzda tanlash va ularning oqibatlari uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olish qobiliyatini anglatadi. Shaxs erkinligining cheklanishi yoki buzilishi tanazzulga yuz tutgan jamiyatlarda inson qadr-qimmatining yo’qolishiga olib keladi. Sharq tafakkurida erkinlik haqidagi dastlabki qarashlar “Avesto” davridayoq shakllangan bo’lib, unda insonning tanlov huquqi, ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi kurash orqali o’z taqdirini belgilash g’oyasi ilgari surilgan. G’arbda esa erkinlikni ta’minlovchi siyosiy institutlar – Sparta va Afina demokratiyasi, Solon va Perikl islohotlari, Rim huquqi tizimida shakllanib borgan. Antik davrda erkinlikning mazmuni asosan siyosiy mustaqillik va fuqarolik huquqlari bilan cheklangan bo’lsa, zamonaviy konsepsiyalarda u shaxsning axloqiy-ruhiy avtonomiyasi va o’zini anglash jarayoni bilan bog’lanadi. Shaxs erkinligi faqat davlat va qonun tomonidan emas, balki jamiyatning axloqiy me’yorlari, ma’naviy qadriyatlari orqali ham himoya qilinishi zarur. Erkin fikr, halol mehnat, ilm olish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlari inson qadr-qimmatining kafolatidir. Shu jihatdan erkinlik va mas’uliyat o’zaro dialektik birlikda mavjud bo’ladi.

Dissertatsiyaning so’nggi bobidagi **“Urush davridagi ma’naviy tanazzul va**

<sup>25</sup> Рецензия на перевод книги Светланы Алексиевич “У войны не женское лицо”. УРЛ: <https://alexievich.info/>

uning ijtimoiy-falsafiy oqibatlari” nomli paragrafda ma’naviy inqiroz tushunchasining mohiyati, uning inson va jamiyat hayotidagi namoyon bo’lish shakllari tahlil qilinadi. Ma’naviy inqiroz – bu qadriyatlar tizimining yemirilishi, axloqiy me’yorlarning zaiflashuvi, hayotiy ma’noning yo’qolishi bilan bog’liq jarayondir. Fyodor Dostoyevskiy, Immanuel Kant, Viktor Frankl, Fridrix Nitshe va Erix Fromm kabi mutafakkirlar qarashlarida inqirozning sabablari turlicha izohlanadi. Dostoyevskiy “Agar Xudo yo’q bo’lsa, demak, hamma narsa mumkin”<sup>26</sup> degan g’oyasi bilan axloqiy mezonlikni inqiroz manbai sifatida ko’rsatadi. Kant “Yonimizdagi yulduzli osmon va ichimizdagi axloqiy qonun”<sup>27</sup> haqidagi fikri orqali ma’naviyatning insoniy mavjudlikdagi markaziy o’rnini asoslaydi. Frankl ma’naviy bo’shliqni hayot ma’nosining yo’qolishi bilan bog’lab, ma’nosizlikni ruhiy salomatlik uchun xavf deb biladi. Nitshe “Xudo o’ldi”<sup>28</sup> degan metafora orqali qadriyatlar vakuumiga, Fromm esa insonning ma’naviy qadriyatlarni yo’qotib, texnokratik tizimlarga qaram bo’lib qolish xavfiga e’tibor qaratadi.

O’zbek ma’naviy tafakkurida ham bu masalaga o’ziga xos yondashuv mavjud. Abdulla Avloniy, Abdulla Qahhor, Shukur Burhonov va Mirkarim Osim kabi adiblar asarlarida milliy ma’naviy inqirozning sabablari, axloqiy qadriyatlarning yemirilishi va insoniy ongdagi o’zgarishlar milliy ruhiyat asosida tahlil etilgan. Urush va adabiyot o’rtasidagi munosabat tarixiy, falsafiy va ma’naviy jihatdan murakkabdir. Adabiyot inson tajribasini, ruhiy kechinmalarni va ijtimoiy o’zgarishlarni badiiy shaklda aks ettiradi. Shu bois qurolli mojarolar inson qadr-qimmatini, axloqiy me’yorlar va ma’naviy qadriyatlarning sinov maydoni sifatida tasvirlanadi. Adabiyot urush sharoitida inson hayotining arzonlashishi, qadriyatlar tizimining yemirilishi va ma’naviy og’riqning chuqurlashuvini yoritadi. Bunday asarlar orqali yozuvchilar inson qadr-qimmatining himoyasi, ma’naviy tiklanish va axloqiy mas’uliyatning qayta shakllanishini badiiy va falsafiy tahlil asosida ko’rsatadilar. Urush nafaqat shaxsni, balki jamiyatni ham o’zgartiradi; u ijtimoiy ong, madaniyat va tarixiy xotiraning qayta baholanishiga olib keladi. Shu bois urush mavzusi adabiyotda insoniyatning ma’naviy o’zgarishlarini tadqiq etuvchi aksiologik maydon sifatida doimo dolzarbdir.

## XULOSA

Urush mavzusidagi romanlarda shaxs ma’naviyati shakllanishi jarayonining badiiy-falsafiy talqini haqida quyidagi xulosalar umumlashtirildi:

1. Urush mavzusida yozilgan romanlar inson ma’naviyati shakllanishini chuqur o’rganuvchi adabiyotning muhim yo’nalishlaridan biridir. Bu asarlarda urushning inson hayotiga, uning ruhiy holatiga va shaxsiy qadriyatlariga bo’lgan ta’siri nafaqat tarixiy voqealar asosida, balki badiiy-falsafiy talqin orqali ham ko’rsatiladi. Qadimgi davrlarda urush va qahramonlik obrazlari epos, afsona va xalq dostonlari orqali ulug’langan bo’lsa, Yangi davr adabiyotida bu mavzu insonparvarlik, fojiviylilik va urushning ma’nosizligini ochib berish yo’nalishida rivoj topgan. G’arb adabiyotida gumanizm va pasifizm g’oyalari asosida urushga

<sup>26</sup> Dostoyevskiy F. Aka-uka Karamazovlar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021. – B.14.

<sup>27</sup> Kant I. Critique of Practical Reason. – Dover Publications Inc, 2004. – pp.67.

<sup>28</sup> Nitshe F. Zardo’sht tavallosi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021. – B.33.

tanqidiy yondashuv kuchaygan, ayniqsa XX asr yozuvchilari – Heminguey, Aleksiyeovich kabi ijodkorlar asarlarida urushning shaxs ruhiyatiga salbiy ta'siri yoritilgan. Sharq adabiyotida esa urush mavzusining talqini nisbatan kech shakllangan bo'lib, milliy qahramonlik ruhi asosida tasvirlar ustun bo'lgan. O'zbek adabiyotida urush mavzusi tarixiy voqealiklar, vatanparvarlik va insoniy fazilatlar bilan bog'langan holda adabiy obrazlar orqali ifodalangan. Umuman olganda, urush mavzusidagi asarlar inson qadr-qimmatini, axloqiy tanlovlar va jamiyat hayotidagi tub o'zgarishlarni aks ettirgan holda, badiiy tafakkur taraqqiyotining muhim ko'zgusiga aylangan.

2. Ernest Xeminguey va Svetlana Aleksiyeovich ijodi asosida urush hodisasi nafaqat tarixiy yoki ijtimoiy voqea, balki inson ruhiyatini sinovdan o'tkazuvchi, uni ichki o'zgarish va ma'naviy o'sishga olib keluvchi jarayon sifatida yoritiladi. Xemingueyning "Alvido, qurol!" romanida urush fonida insonning erkka intilishi, ma'naviy uyg'onishi va sevgining najot sifatidagi ifodasi tahlil qilinsa, Aleksiyeovichning "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" asarida urushning ayol qalbiga solgan og'ir ma'naviy zarbasi va inson qadr-qimmatining yemirilishi chuqur badiiy hujjatli vositalar orqali ochib beriladi. Har ikki asarda ham urush nafaqat zo'ravonlik va halokat timsoli, balki insonning ichki olamiga ta'sir etuvchi omil sifatida talqin etiladi. Nobel mukofoti sovrindorlarining ushbu romanlari orqali urush hodisasi umuminsoniy qadriyatlar – inson erkinligi, ma'naviy tozalik, vijdon, sevgi, g'amxo'rlik, hayotga munosabat orqali o'rganiladi. Urush mavzusi adabiyotda shaxs ma'naviyatining murakkab, ko'p qirrali shakllanish jarayonini aks ettirishda samarali badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bu esa urush mavzusidagi romanlarni nafaqat estetik, balki ma'naviy-falsafiy jihatdan ham chuqur o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

3. Antik va o'rta asrlarda urush qahramonlik ramzi sifatida talqin qilingan bo'lsa, zamonaviy adabiyotda uning bema'niligi, inson qadr-qimmatiga yetkazadigan zarari va ma'naviy vayronaligi ko'proq o'rganiladi. Jahon urushlari mavzusidagi adabiyotda nafaqat frontdagi janglar, balki tinch aholining boshdan kechirgan iztiroblari va urushning ijtimoiy oqibatlari tasvirlangan. Bu asarlar inson ruhiyatiga va jamiyat qadriyatlariga chuqur ta'sir qiluvchi omil sifatida urushni tahlil qiladi.

4. Urush adabiyotda inson qadri, ma'naviy inqiroz va axloqiy tanazzul mavzularini yorituvchi markaziy mavzu sifatida ahamiyat kasb etadi. Urush mavzusidagi adabiyot insonlarning fojialarini aks ettirish orqali urushning salbiy oqibatlari haqida chuqur mulohaza qilishga chorlaydi. Bu asarlar, o'z navbatida, jamiyatning urushlarga bo'lgan munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

5. Tahlil shuni ko'rsatadiki, urush mavzusi badiiy adabiyotda nafaqat tarixiy voqeani aks ettiruvchi fakt sifatida, balki inson ma'naviy-ruhiy olami va qadriyatlar kurashining markaziy masalasi sifatida namoyon bo'ladi. Urushning falsafiy angamlari va badiiy talqinlarining qiyosiy tahlili bu mavzuning chuqur ijtimoiy va gumanistik ahamiyatini ochib beradi. Shunday qilib, urush mavzusi san'atda, xususan, adabiyotda insoniyat tarixiy xotirasini saqlab qolish va uni ma'naviy yuksalish yo'lida safarbar qilish vositasi sifatida xizmat qiladi.

6. Urush mavzusidagi romanlar inson qadr-qimmatini, shaxsiy erkinlik, ma'naviy burch va ma'naviy inqiroz kabi umuminsoniy qadriyatlarning badiiy-falsafiy talqinini keng yoritadi. Bunday asarlarda urush sharoiti – inson qadrining sinov maydoniga aylanadi. Urush insonning nafaqat jismoniy, balki axloqiy-ruhiy

holatini ham keskin sinovdan o'tkazadi. Xeminguey va Aleksiyevich ijodida insonning ichki kurashi, iroda va ma'naviy bardosh urushga qarshi kurashda asosiy qurol sifatida talqin qilinadi. Shaxs erkinligi masalasi romanlarda nafaqat falsafiy va huquqiy nuqtai nazardan, balki ma'naviy yondashuvda ham ko'rib chiqiladi. Bu borada Sharq va G'arb falsafalarining turli qarashlari o'rganiladi. Shaxs erkinligi – inson qadriyatining ajralmas qismi sifatida ifodalanadi. Urush davrida yuzaga keladigan ma'naviy inqiroz esa inson hayotining ma'nosizlanishi, axloqiy mezonlarning yemirilishi, ruhiy bo'shliq va qadriyatlar vakuumiga olib keladi. Shunday qilib, urush romanlari umuminsoniy qadriyatlarning qadrsizlanishiga qarshi badiiy-falsafiy qarshilik vazifasini bajaradi.

7. Inson qadr-qimmat, ma'naviy burch va erkinlik kabi tamoyillar jamiyat va shaxs hayotining asosiy ma'naviy ustunlari hisoblanadi. Inson qadr-qimmat uning shaxsiy huquqlari, erkinligi va ijtimoiy adolatga asoslangan bo'lib, tenglik, hurmat va yordam berish kabi qadriyatlar bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ma'naviy burch insonning jamiyat oldidagi axloqiy mas'uliyati bo'lib, adolat, haqiqatga sodiqlik va boshqalarga yordam berishga intilishni nazarda tutadi. Erkinlik esa insonning o'ziga xos huquq va imkoniyatlaridan foydalanishni anglatib, mas'uliyat bilan uyg'un holda amalga oshiriladi. Adabiyotda bu tushunchalar urush va jamiyatdagi ziddiyatlar fonida yanada chuqur yoritilgan.

8. Urush adabiyoti inson qadr-qimmatiga, shaxs va jamiyat ruhiyatiga yetkazgan zararni, shuningdek, axloqiy sinovlar va shaxsiy kamolot jarayonlarini tahlil qilishda muhim vosita bo'lib kelgan. Ernest Heminguey, Svetlana Aleksiyevich kabi yozuvchilar urushning inson hayotiga ta'sirini ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy jihatdan yoritishga katta hissa qo'shganlar. Ular urushning nafaqat tashqi, balki inson ichki dunyosini o'zgartiruvchi oqibatlarini ham ko'rsatib bergan. Zamonaviy adabiyotda urush mavzusi global muammolarni ochib berish, inson huquqlari va jamiyatning kelajagi haqidagi muhim savollarni qayta ko'rib chiqish uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu asarlar urushning falokatli oqibatlarini namoyon qilish bilan birga, tinchlik, adolat va inson qadr-qimmatini himoya qilishga chaqiruv sifatida xizmat qiladi.

9. Inson qadr-qimmat, ma'naviy burch va erkinlik tushunchalari jamiyat va shaxs hayotining ahamiyatli asoslaridan biri bo'lib, adabiyot ularni chuqur o'rganish va insonning ma'naviy kamolotini yoritishda muhim o'rin tutadi. Urush mavzusi esa bu jarayonlarni yanada ravshanlashtirib, inson ruhiyati va jamiyatning ahloqiy mas'uliyatiga oyna tutadi. Urush mavzusidagi romanlar shaxs ma'naviyati shakllanishini axloqiy tanlovlar, ruhiy qiyinchiliklar va hayotga yangi ma'no topish jarayoni orqali badiiy va falsafiy jihatdan talqin qiladi. Bu asarlar insonning ichki dunyosiga kirib borish, uning o'zligini anglash va ma'naviy yuksalish jarayonini yoritib, adabiyotning inson hayotini tushunishdagi o'rnini yanada boyitadi.

#### **Tadqiqot ishi doirasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:**

1. Urush mavzusini shaxs ma'naviyati shakllanishi bilan bog'liq holda badiiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etuvchi adabiy-metodik yondashuv ishlab chiqilishi tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv urush tasvirini nafaqat tarixiy hodisa, balki inson ongi, ruhiy iztiroblari va ma'naviy kamolot jarayoni sifatida ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. Mazkur metodika doirasida urush aks etgan romanlar qahramonlarining axloqiy tanlovlari, ichki inqirozlari va ruhiy yangilanish holatlari falsafiy tushunchalar bilan uyg'unlashtirilgan holda tahlil qilinishi lozim.

2. Urush romanlarida inson qadri, ma'naviy burch va erkinlik tushunchalarining badiiy talqinini alohida ilmiy-nazariy kategoriyalar sifatida o'rganish taklif etiladi. Ushbu tamoyillar shaxsning shakllanishida markaziy ahamiyatga ega bo'lib, ularni badiiy obrazlar orqali tahlil qilish adabiy tadqiqotlar sathini falsafiy darajaga olib chiqadi. Bu orqali zamonaviy adabiy jarayonlarda insonparvarlik tamoyillari qanday ifodalanganini aniq ko'rsatish mumkin.

3. Urush romanlari orqali shaxsning ichki o'zgarishlarini ifodalovchi badiiy vositalar (simvol, metafora, ichki monolog, konflikt) tizimli o'rganilishi tavsiya qilinadi. Bu vositalar orqali yozuvchi inson ruhiy olamidagi siljishlar va ma'naviy yetilishni ifodalaydi. Bunday vositalarning tahlili romanlarning badiiy-falsafiy qatlamini ochishga xizmat qiladi va shaxsning ichki dunyosini ifodalash mexanizmini ko'rsatadi.

4. O'zbek va jahon adabiyotidagi urush mavzusiga oid romanlar asosida qiyosiy-falsafiy tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi. Bu yondashuv orqali madaniyatlararo o'xshashliklar va tafovutlar, shuningdek insoniy qadriyatlarning umumiyligi yoritiladi. Bu yondashuv urushning universalligi va madaniy o'ziga xosliklari haqida umumlashmalar chiqarishga yordam beradi.

5. Urush mavzusini yoshlar ongida ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ishlatish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim. Buning uchun maktab va oliy ta'lim dasturlariga urush romanlarining badiiy va falsafiy qatlamlarini yorituvchi maxsus darslar, seminarlar va adabiy tahlil mashg'ulotlari kiritilishi kerak. Bu tadbirlar yoshlar ongida insonparvarlik, tinchliksevarlik, erkinlik va ma'suliyat hissini shakllantiradi.

6. Adabiy-falsafiy tadqiqotlar doirasida urush romanlaridagi ruhiy inqiroz va ma'naviy kamolot o'rtasidagi murakkab aloqani chuqur tahlil qilish zarur. Shaxsning iztiroblari, yo'qotishlari va umidsizliklari orqali erishilgan ichki uyg'onish holatlari bu romanlarda markaziy falsafiy mavzulardan biridir. Aynan shu yo'nalishda olib borilgan tahlillar insonning ma'naviy yetilishi qanday murakkab va ziddiyatli jarayon ekanini badiiy tilda ochib beradi.

**ИБРАГИМОВА НОДИРА ШУХРАТЖОНОВНА**

**ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ  
ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ В РОМАНАХ НА ТЕМУ ВОЙНЫ  
(на примере творчества лауреатов Нобелевской премии)**

**09.00.07 – История и теория духовности**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (phd) по философским наукам**

**Ташкент – 2025**



## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Романы на военную тематику, признанные редкими образцами мирового философского мышления и художественной литературы, обладают большой общественно-философской значимостью тем, что в них глубоко раскрыто, как изменяется психология, ценности и мировоззрение человека в необычных условиях то есть в кризисных ситуациях, подобных войне. В таких произведениях война предстает не просто как военное столкновение, но как великое испытание для человеческого сознания и души. Через страдания, потери и встречи героев со смертью показан процесс формирования их характера и духовного мира, переданный средствами глубокого художественно-философского анализа и изображения. Каждое решение и каждое действие персонажей тесно связано с философскими проблемами духовности – такими, как моральный выбор, справедливость, человечность, прощение и ненависть, – побуждая читателя к глубокому размышлению. Тем самым проявляется актуальное значение подобных произведений в формировании у людей общечеловеческих представлений о добре и зле, мире и войне, жизни и смерти.

Согласно исследованиям философов мира, в условиях войны человек проявляет как свои лучшие, так и худшие стороны. В романах о войне показывается, как человек может утратить человечность, превратившись в жестокое существо, или, напротив, противостоять несправедливости и жестокости общества, стараясь защитить свои духовные ценности. Особенно в романах писателей – лауреатов Нобелевской премии – всесторонне освещены противоречия между личными ценностями и общественными требованиями, страдания совести личности в периоды духовного распада общества, философия духовно-нравственных конфликтов между общественным долгом и истиной. Эти произведения помогают глубже осмыслить философский смысл смерти и потерь. В то же время они подчеркивают необходимость проведения научных исследований, направленных на осознание духовных и психологических последствий войны для будущих поколений, предотвращение возможной социальной нестабильности и укрепление ценностей мира через взаимное сотрудничество между народами и нациями.

В последние годы в Узбекистане в сфере социальных наук последовательно возрастает научный интерес к вопросам личности человека, его духовного мира и общественной психологии. Как отметил Президент: «Если живут литература, искусство и культура – живут народ и нация, живёт всё человечество»<sup>29</sup>. Действительно, понимание механизмов формирования духовности личности в условиях тяжёлых социальных испытаний, подобных войне, способствует более глубокому познанию

---

<sup>29</sup> Mirziyoyev Sh. “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik nutqi. URL: <https://www.xabar.uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>

человеческой психологии. Это служит теоретической основой не только для области литературного анализа, но и для системы образования, духовно-просветительских реформ. С этой точки зрения, в стратегии «Новый Узбекистан – 2030» одной из приоритетных задач определено «обеспечение духовного развития и выведение сферы культуры на новый уровень». Исходя из этого, осмысление механизмов формирования духовности личности в условиях тяжёлых социальных испытаний, более глубокое изучение человеческой психологии, её исследование, а также разработка научно-теоретически значимых предложений, рекомендаций и выводов являются актуальной задачей.

Постановление Президента Республики Узбекистан от 13 сентября 2017 года № ПП-3271 «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения и пропаганде книги», постановление от 26 марта 2021 года № ПП-5040 «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительской деятельности», указ от 29 октября 2020 года № ПФ-6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года», указ от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О стратегии Узбекистан–2030», а также постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 3 июня 2021 года № 340 «Об организации деятельности Института социально-духовных исследований при Республиканском центре духовности и просвещения», протокол № 50 от 22 декабря 2023 года и решения Республиканского совета по духовности и просвещению, наряду с другими нормативно-правовыми документами, служат нормативной и методологической основой для реализации задач, поставленных в настоящей диссертационной работе. Анализ формирования духовности личности в романах о войне представляет собой не просто литературное исследование, но и изучение глубинных ценностей человеческой психики и судьбы человека в кризисные периоды. Эта тема остаётся актуальной и сегодня, когда человечество продолжает испытывать постоянную потребность в осмыслении духовных уроков собственной истории.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей в развитии информационного общества и демократического государства в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском аспектах и пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** В трудах Первого Президента Республики Узбекистан Ислама Каримова<sup>1</sup>, а также в Указе Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева «О Стратегии “Узбекистан 2030»<sup>2</sup>, в его решениях и произведениях, касающихся данной сферы,

---

<sup>1</sup> Karimov I. Asarlar to'plami. Toshkent. 1-24. – Toshkent: O'zbekiston. 1996-2015.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

выдвинуты принципы возвышения духовности, рассмотрения человеческого фактора в качестве приоритетной ценности на пути построения гражданского общества Нового Узбекистана, которые служат научно-методологической основой данного исследования.

